



ALISHER NAVOIY KICHIK LIRIK JANRLARINING IBROHIM HAQQUL TALQINIDAGI POETIK VA IRFONiy QATLAMLARI

Tolibova Farida Farhodovna

*Navoiy davlat pedagogika universiteti, filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti
kafedrasida 2-bosqich tayanch doktoranti
tolibovafarida290@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy kichik lirik janrlarining Ibrohim Haqqul tadqiqotlaridagi ilmiy-estetik talqini o'rganiladi. Asosiy e'tibor ruboiy va qit'alarining janriy tabiati, poetik qurilishi, vazn va qofiya xususiyatlari, obrazlar semantikasi hamda irfoni mazmun qatlamlarini ochishda olim qo'llagan tadqiq tamoyillariga qaratiladi. Ibrohim Haqqulning ruboiyni oddiy to'rtlik sifatida emas, shakl va mazmun yaxlitligiga asoslangan mustaqil poetik tizim sifatida baholashi, Navoiy ruboiylarini an'anaviy biografik talqindan kengroq ma'naviy-irfoni miqyosda sharhlashi tahlil qilinadi. Qit'alar talqinida esa komillik, qanoat, himmat, tavoze, viqor, hilm va oriflik kabi tushunchalarning badiiy-estetik vazifasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Ibrohim Haqqul, ruboiy, qit'a, kichik lirik janr, poetika, irfon, tasavvuf, g'urbat, komil inson, badiiy talqin, sharh.

ПОЭТИЧЕСКИЕ И ИРФАНИЧЕСКИЕ ПЛАСТЫ МАЛЫХ ЛИРИЧЕСКИХ ЖАНРОВ АЛИШЕРА НАВОИ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ИБРАГИМА ХАККУЛА

Аннотация. В статье исследуется научно-эстетическая интерпретация малых лирических жанров Алишера Навои в трудах Ибрагима Хаккула. Особое внимание уделяется жанровой природе рубаи и кыта, их поэтической структуре, особенностям размера и рифмы, семантике образов и ирфаническим слоям смысла. Анализируется подход ученого к рубаи как к самостоятельной художественной системе, основанной на единстве формы и содержания. На примере известных рубаи и кыта Навои раскрываются особенности интерпретации понятий «гурбат», «гариб», духовного совершенства, довольства, смирения и внутренней свободы.

Ключевые слова: Алишер Навои, Ибрагим Хаккул, рубаи, кыта, поэтика, ирфан, суфизм, гурбат, совершенный человек, художественная интерпретация.

POETIC AND IRFANIC LAYERS OF ALISHER NAVOI'S SMALL LYRIC GENRES IN IBRAHIM HAQQUL'S INTERPRETATION

Abstract. This article examines the scholarly and aesthetic interpretation of Alisher Navoi's small lyric genres in the studies of Ibrahim Haqqul. Particular attention is paid to the genre nature of the rubai and qit'a, their poetic structure, metre and rhyme, the semantics of



images, and their mystical layers of meaning. Haqqul's approach to the rubai as an independent poetic system based on the unity of form and content is analyzed. The article also discusses his interpretation of Navoi's qit'as through the concepts of spiritual perfection, contentment, aspiration, humility, dignity, patience and the state of the enlightened person.

Key words: Alisher Navoi, Ibrahim Haqqul, rubai, qit'a, poetics, irfan, Sufism, exile, perfect human, literary interpretation.

Alisher Navoiy merosini o'rganish o'zbek adabiyotshunosligining uzluksiz davom etib kelayotgan muhim ilmiy yo'nalishlaridan biridir. Shoir ijodining mazmun ko'lam, poetik imkoniyatlari va falsafiy teranligi uning asarlarini har bir davrda yangicha mezonlar asosida qayta o'qishni talab etadi. Ayniqsa, Navoiy lirik merosidagi ruboiy, qit'a, fard va tuyuq singari kichik janrlar hajman ixcham bo'lishiga qaramay, ularda inson, hayot, ma'naviyat, ishq, irfon va komillik haqidagi yirik umumlashmalar mujassam. Ibrohim Haqqulning Navoiy ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlarida ana shu ixcham poetik shakllarning ichki mazmuni, janriy tabiati va badiiy imkoniyatlarini ochishga alohida e'tibor qaratiladi. Olim ruboiy va qit'alarni shunchaki mazmunan izohlab bermaydi, balki ularning poetik qurilishi bilan ma'naviy-falsafiy mohiyatini bir butun hodisa sifatida ko'rishga intiladi [1, 4-b.].

Ibrohim Haqqulning ruboiy haqidagi qarashlarida, avvalo, janrni aniq ilmiy mezonlar asosida belgilashga intilish ko'zga tashlanadi. Tadqiqotchi ruboiyni to'rt misradan tashkil topgan har qanday she'r bilan tenglashtirmaydi. Uningcha, ruboiyda fikriy tugallik, kompozitsion yaxlitlik, maxsus vazn va qofiya tizimi o'zaro uyg'unlashishi lozim. Bu jihatdan Haqqulning qarashlari turkiy poetika tarixidagi nazariy an'analar bilan uzviy bog'lanadi. Shayx Ahmad Xudoydot Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida ruboiyning alohida janr sifatida qayd etilishi ham mazkur shaklning qadimdan mustaqil poetik maqomga ega bo'lganini ko'rsatadi [9, 32-b.].

Ruboiy janrining nazariy xususiyatlarini belgilashda Yoqubjon Is'hoqovning fikrlari ham muhimdir. U ruboiy uchun tugal mazmun va maxsus shaklning o'zi kifoya emasligini, to'rtlikning ruboiy vaznida yozilishi ham zarur ekanini ta'kidlaydi [1, 6-b.]. Haqqul ham vazn masalasini ruboiy poetikasining markaziy belgilaridan biri sifatida o'rganadi. Bunda vazn tashqi texnik talab bo'lib qolmay, she'rning ichki ohangi, fikr harakati va emotsional ta'sirini yuzaga chiqaradigan vosita sifatida qaraladi. Shu sababli olim ruboiy vaznining hazaj bahridagi axram va axrab tarmoqlari bilan bog'liqligini tarixiy va nazariy jihatdan izohlashga intiladi [1, 4-b.].

Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida ruboiy vaznining "dubaytiy" va "tarona" nomlari bilan yuritilgani, hazaj bahrining axram va axrab tarmoqlaridan hosil bo'lishi qayd etiladi [1, 6-b.]. Haqqul mazkur nazariy qarashlarni Navoiy ruboiylarining amaliy qurilishi bilan bog'laydi. Masalan, "No'sh aylar emish qadahni jonona to'la..." ruboiysi hamda "Ey, sensiz umrimdin osoyish yo'q..." misrasi bilan boshlanuvchi ruboiy tahlilida vaznning turli ko'rinishlari kuzatiladi. Bir ruboiy doirasidagi misralarning turli vazn variantlarida kelishi ruboiy poetikasining qat'iy qolip ichidagi badiiy erkinligini ko'rsatadi [1, 4-b.].





Haqqul ruboiy qofiyasiga ham alohida e'tibor beradi. Uning talqinida qofiya faqat misra oxiridagi ohangdoshlik emas, balki ruboiyning kompozitsion birligini ta'minlaydigan va lirik fikrning ta'sirchanligini kuchaytiradigan poetik vositadir. Boburning "Yod etmas emish kishini mehnatta kishi..." ruboiysi yuzasidan bildirilgan mulohazalar bunga misol bo'la oladi. Tadqiqotchi "mehnat", "g'urbat" va "albatta" qofiyalarining o'zaro munosabatiga e'tibor qaratib, oxirgi birlikning semantik va fonetik holatini "taqalluf ul-qofiya" hodisasi bilan izohlaydi [8, 156-b.]. Bu kuzatish ruboiydagi shakliy unsur ham ma'no yaratishda faol qatnashishini ko'rsatadi.

Ibrohim Haqqul tahlillarining eng e'tiborli jihatlaridan biri mashhur she'riy matnlarni odat tusiga kirgan bir yoqlama talqinlardan chiqarib, ularning boshqa semantik qatlamlarini ko'rsatishidir. Navoiyning "G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish..." ruboiysi bunga yorqin misoldir. Ushbu ruboiy uzoq vaqt davomida, asosan, vatan sog'inchi va musofirlik kechinmasining ifodasi sifatida sharhlab kelindi. Bunday talqin ruboiy mazmunining bir qirrasini ochsa-da, undagi "g'urbat", "g'arib", "qafas", "bulbul" singari tushunchalarning mumtoz tasavvufiy poetikadagi ma'nolarini to'liq qamrab olmaydi [11, 133–134-b.].

Haqqul an'anaviy vatanparvarlik talqinini mutlaqo inkor etmaydi. Aksincha, matnning ma'no doirasini kengaytiradi. Olimning qarashicha, tasavvuf axloqida "g'arib" alohida ruhiy maqomni anglatadi. Insonning o'z vujudini qafas sifatida his etishi, ruhning bu chegaradan ozodlikka va asl manzilga intilishi g'urbat tushunchasining botiniy mazmunini belgilaydi [5, 121-b.]. Shunday yondashilganda, ruboiydagi "g'urbat" oddiy geografik uzoqlikdan insonning foniy olamdagi ruhiy begonaligini ifodalovchi falsafiy tushunchaga aylanadi.

Ruboiydagi "oltun qafas" va "bulbul" obrazlari ham ana shu irfoniy tizim ichida yangicha ma'no kasb etadi. Qafas tashqi jihatdan qanchalik go'zal va qimmatli bo'lmasin, bulbul uchun erkinlikning o'rnini bosa olmaydi. Tasavvufiy ma'noda esa moddiy olamning jozibasi ruhning asl ehtiyojini qondira olmaydi. Insonning jismoniy mavjudligi, dunyoviy boylik va qulayliklar ruhiy ozodlik o'rnini egallay olmaydi. Shu nuqtada Haqqulning tahlili she'rdagi predmet obrazlarini ma'naviy holat va ruhiy tajriba bilan bog'laydi.

Mazkur ruboiy yuzasidan Bobomurod Erali bildirgan fikrlar ham irfoniy yo'nalishdagi talqinga yaqin turadi. U "g'urbat"ni insonning foniy olamdagi holati, asl vatan tushunchasini esa ruhiy manzil bilan bog'laydi. Erali talqinida Odam Ato qismati, Rumi, Attor va Sa'diy merosiga murojaat qilinishi ruboiyning keng tasavvufiy kontekstini ko'rsatishga xizmat qiladi. Haqqul esa ko'proq matnning o'z ichki semantikasiga, tasavvuf axloqidagi "g'arib" maqomiga va vujud-ruh munosabatiga urg'u beradi [14, 756-b.]. Shu jihatdan ikki talqin bir-birini inkor etmaydi, balki ruboiyning ma'no imkoniyatlarini turli yo'nalishda kengaytiradi.

Haqqulning kichik lirik janrlarni o'rganishdagi ilmiy usuli qit'a tahlillarida ham davom etadi. Olim qit'ani faqat shakliy jihatdan g'azalga yaqin janr sifatida ko'rishni yetarli hisoblamaydi. Fitratning qit'ani matlasi mavjud bo'lmagan g'azal bilan bog'liq tarzda tavsiflashi tarixiy poetika uchun muhim bo'lsa-da, Haqqul qit'aning mustaqil mazmuniy tabiatiga alohida urg'u beradi. Uningcha, qit'a va g'azal o'rtasidagi farqni faqat qofiyalanish yoki matla masalasi bilan cheklash janr mohiyatini toraytiradi [4, 12–17-b.].





Navoiy qit'alarida inson kamoloti, axloqiy poklik, to'g'rilik, qanoat, himmat va ma'rifat masalalari keng yoritiladi. Ibrohim Haqqul ushbu tushunchalarni alohida nasihatlar yig'indisi sifatida emas, o'zaro bog'langan ma'naviy tizim sifatida sharhlaydi. "Himmat ahliki erur tuzluk aro sarv kibi..." qit'asida sarv va suv timsollari vositasida to'g'rilik bilan pastkashlik qarama-qarshi qo'yiladi. Haqqul sharhida himmatning saxovat bilan, to'g'rilikning esa insoniy qadr va ma'naviy mustaqillik bilan bog'liqligi ochiladi [2, 72–73-b.].

"Qanoat tariqiga kir, ey ko'ngil..." qit'asi talqinida qanoat oddiygina oz narsaga rozi bo'lish sifatida emas, insonni ichki erkinlikka olib boradigan ma'naviy holat sifatida ko'rsatiladi. Haqqul mazkur qit'adagi mazmunni naqshbandiylikning "Xilvat dar anjuman", "Safar dar vatan", "Nazar dar qadam", "Hush dar dam" kabi tamoyillari bilan aloqadorlikda tushuntiradi [2, 88-b.]. Natijada qanoat moddiy ehtiyojni cheklashdan ko'ra kengroq ma'no kasb etib, nafsni boshqarish, o'zini nazorat qilish va ruhiy uyg'oqlikning tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi.

Navoiy qit'alarida oriflik tushunchasi ham muhim badiiy-falsafiy mazmunga ega. "Erur orifqa ganji fayz yetsa, / Ishi dam urmayin ani yoshurmoq. / Quyosh aksi tushib daryo ichinda, / Ne mumkindur aning suyin toshurmoq" misralarida chin ma'rifatning kamtarlik bilan uyg'unligi obrazli ifodalangan. Haqqul ushbu qit'adagi "ganji fayz", "quyosh", "daryo" va "suv" obrazlarini ma'naviy holatning badiiy ko'rsatkichlari sifatida sharhlaydi [2, 262-b.]. Quyoshning daryoga tushgan aksi suvni toshirmagani kabi, haqiqiy bilim va ruhiy fayz ham orifni manmanlikka olib kelmaydi.

Bu talqinda obrazning tabiatdagi holati bilan insonning ichki dunyosi o'rtasida nozik qiyos yuzaga keladi. Daryo o'z bag'rida quyosh aksini ko'rsatadi, ammo bu ulug' nur uning tabiiy chegarasini buzmaydi. Xuddi shuningdek, chin orif ham o'ziga yetgan ma'rifatni da'vo va shov-shuvga aylantirmaydi. Haqqulning sharhi Navoiy qit'asidagi axloqiy xulosani tasavvufdagi botiniy odob bilan bog'lab, "oriflik"ni bilim miqdori emas, bilimning inson ruhiyatida qanday namoyon bo'lishi bilan o'lchaydi.

Navoiyning "Kamol et kasbkim, olam uyidin..." qit'asi Ibrohim Haqqul talqinlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir insonni bu dunyodan ma'naviy jihatdan "notavon" holda o'tib ketmaslikka, hayot davomida kamol kasb etishga undaydi. Haqqul bu fikrni o'zlikni anglash masalasi bilan bog'laydi. Insonning o'zini tanishi uning olamni, hayotning maqsadini va ma'naviy mas'uliyatini chuqurroq anglashiga yo'l ochadi [2, 23-b.]. Shu sababli "kamol et kasbkim" iborasi oddiy pand emas, inson umrining mazmunini belgilaydigan ma'naviy dastur darajasiga ko'tariladi.

Haqqul talqinida komillik tashqi bilim yoki ijtimoiy mavqe bilan o'lchanmaydi. U, avvalo, insonning o'z nafsiga munosabati, hirs va ta'madan xalos bo'lishi, qalbini poklashi va ichki erkinlikka erishishi bilan belgilanadi. Shu jihatdan olimning Navoiy qit'alariga bergan sharhlari uning tasavvufga oid boshqa tadqiqotlari bilan hamohangdir. Tasavvuf insonning botiniy olamini o'rganishga, ruhiy poklanish va o'zlikni anglashga qaratilgan ta'limot sifatida Haqqul ilmiy tafakkurining muhim metodologik tayanchlaridan biri bo'lib xizmat qiladi [5, 121-b.].





Navoiy qit'alaridagi tavoze tushunchasi ham Haqqul sharhlarida hayotiy va tarixiy misollar vositasida ochiladi. "Tavozo' yaxshi, ammo yaxshiroqdur..." qit'asi yuzasidan Xusrav Parvez, Mudbir va Muqbil haqidagi rivoyatning eslatilishi poetik fikrning ma'naviy mohiyatini kitobxonga yaqinlashtiradi. Tavoze bu yerda faqat odob belgisi emas, insonning o'z qadrini saqlagan holda boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, takabburlikdan yiroq turishi va kamtarlikni doimiy axloqiy sifatga aylantirishi sifatida namoyon bo'ladi [2, 112-b.].

"Viqor gavhar-u hilm ma'dani bo'lakdur..." qit'asida esa viqor va hilm tushunchalari birini to'ldiruvchi fazilatlar sifatida beriladi. Viqor insonning ma'naviy salobati, vazminligi va o'z qadrini bilishi bilan bog'liq bo'lsa, hilm sabr, bosiqlik va bag'rikenglikni anglatadi. Haqqul bu fazilatlarni shaxsiy axloq doirasida qoldirmay, ma'naviy barkamol avlod tarbiyasi bilan bog'laydi [2, 20-b.]. Bu esa olim sharhlarining zamonaviy ma'rifiy ahamiyatini ham belgilaydi.

Ibrohim Haqqulning Navoiy matniga munosabatida yana bir xususiyat ko'zga tashlanadi: u mumtoz matnni soddalashtirib yubormaydi, ammo uning murakkabligini o'quvchi uchun tushunarli izohlar bilan ochishga intiladi. "Kelisyo", "jual", "xuffosh" singari bugungi kitobxon uchun tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarning ma'nosini izohlash, tarixiy, afsonaviy va tasavvufiy shaxslar haqida zarur ma'lumot berish shular jumlasidandir. Bunday yondashuvda sharh matn o'rnini egallamaydi, balki o'quvchini matnning o'ziga qaytaradigan vosita vazifasini bajaradi.

Olimning ruboiy va qit'alar tahlilini o'zaro qiyoslaganda umumiy metodologik tamoyil aniq ko'rinadi. Ruboiyda u vazn, qofiya, ramz va irfoniy ma'noni bir butunlikda ko'rsa, qit'ada janr tabiati, axloqiy g'oya, badiiy timsol va inson kamoloti masalalarini uyg'unlashtiradi. Demak, Haqqul uchun mumtoz she'rni tushunish faqat lug'aviy ma'noni aniqlash emas. Matnning tarixiy poetikasi, shakliy qurilishi, ramziy tili, diniy-irfoniy manbalari va inson ruhiyatiga daxldor qatamlari birgalikda hisobga olinishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan, Haqqulning "G'urbatda g'arib..." ruboiysiga bergan talqini uning ilmiy usulini eng yorqin ko'rsatadigan misollardan biridir. An'anaviy talqinda ruboiy shoirning vatandan uzoqlikdagi iztiroblari bilan bog'lansa, Haqqul bu mazmunni inkor qilmasdan, "g'arib" tushunchasining tasavvuf axloqidagi maqomini ochadi. Natijada ruboiydagi vatan tushunchasi ham ikki qatlamli tus oladi: biri insonning tug'ilib-o'sgan yurti, ikkinchisi ruhning asl manzili. Bunday ko'pqatlamli o'qish Navoiy matnining ma'no imkoniyatlarini toraytirmasdan tushuntirishga xizmat qiladi.

Haqqulning ilmiy yondashuvda oldingi tadqiqotchilar qarashlariga munosabat ham e'tiborga molik. U mavjud talqinlarni rad etish orqali o'z fikrini ustun qo'yishga emas, balki matnning ilgari yetarlicha yoritilmagan qirrasini ko'rsatishga intiladi. Shu sababli uning tahlillarida qiyosiylik tabiiy ravishda yuzaga keladi. Yoqubjon Is'hoqovning ruboiy janriga oid nazariy qarashlari, Fitratning qit'a haqidagi fikrlari, Navoiy poetikasiga oid avvalgi izlanishlar Haqqul uchun munozara va davom ettirish nuqtasiga aylanadi [12, 67-b.].





Ayni paytda Haqqulning tasavvufiy talqinlarini she'rga tayyor ma'no yuklash sifatida tushunish to'g'ri bo'lmaydi. Olim ko'pincha talqinni matndagi kalit tushunchalar, ramziy obrazlar va ularning mumtoz adabiy an'adagi semantik imkoniyatlaridan kelib chiqib quradi. "G'urbat", "g'arib", "qafas", "bulbul", "fayz", "quyosh", "daryo", "kamol" singari so'zlarning oddiy lug'aviy ma'nodan tashqari ma'naviy-falsafiy mazmun kasb etishi ana shu yondashuv mahsulidir. Bu esa uning sharhlarini matn markazli ilmiy talqin sifatida baholash imkonini beradi.

Navoiy kichik lirik janrlarining badiiy qudrati ham aynan ixcham shaklda katta ma'noni jamlay olishida ko'rinadi. Ruboiyda to'rt misra ichida falsafiy xulosa, ruhiy kechinma va poetik musiqiylik birlashsa, qit'ada hayotiy kuzatish, axloqiy mezon va badiiy umumlashma uyg'unlashadi. Haqqul bu janrlarning ixchamligini soddalik bilan tenglashtirmaydi. Aksincha, hajmning kichikligi ma'no zichligini oshiradi va tadqiqotchidan har bir so'z, timsol, vazn va qofiya vazifasiga sinchiklab qarashni talab qiladi.

Ibrohim Haqqulning Navoiyshunoslikdagi xizmatlaridan biri ham ana shunday "zich" matnlarni zamonaviy o'quvchiga ochib berishidir. U Navoiy asarlaridagi murakkab tasavvufiy va falsafiy mazmunni sharhlashda ilmiy asosni saqlagan holda ravon ifodaga intiladi. Buning natijasida Navoiy she'riyati faqat mutaxassislar doirasida o'rganiladigan tarixiy matn bo'lib qolmay, bugungi insonning ma'naviy izlanishlari bilan muloqotga kirishadigan tirik adabiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Kichik janrlar tahlili Ibrohim Haqqulning Navoiy ijodiga umumiy munosabatini ham ko'rsatadi. Olim uchun Navoiy ijodi, eng avvalo, insonni o'zini anglashga, ruhiy qullikdan xalos bo'lishga, axloqiy va ma'naviy kamolotga intilishga undaydigan katta tafakkur maktabidir. Shu sababli ruboiydagi g'urbat va qafas obrazlari ham, qit'adagi qanoat, himmat, tavoze yoki viqor tushunchalari ham yagona ma'naviy yo'nalishda birlashadi. Bu yo'nalishning markazida insonning ichki erkinligi va o'zligini tanishi turadi.

Xulosa qilib aytganda, Ibrohim Haqqulning Alisher Navoiy kichik lirik janrlariga doir tadqiqotlarida poetik tahlil va irfoniy talqin o'zaro uzviy bog'langan. Olim ruboiyni maxsus vazn, qofiya, kompozitsion butunlik va tugallangan mazmunga ega mustaqil janr sifatida o'rganadi; qit'alarni esa inson kamoloti va axloqiy-ma'naviy tafakkurning ixcham poetik ifodasi sifatida sharhlaydi. "G'urbatda g'arib..." ruboiysi misolida an'anaviy vatanparvarlik mazmunining irfoniy-falsafiy qatlam bilan boyitilishi, qit'alarda esa qanoat, himmat, oriflik, tavoze, viqor va hilm tushunchalarining keng ma'naviy tizim sifatida ochilishi Haqqul talqinlarining o'ziga xosligini belgilaydi. Tadqiqotchining yutug'i mumtoz matnni bir yoqlama izohlashdan ko'ra uning ko'pqatlamli semantikasini ochishga, shakl va mazmun, tarixiy poetika va tasavvufiy tafakkur, badiiy timsol va inson ruhiyati o'rtasidagi ichki bog'lanishni ko'rsatishga intilishida namoyon bo'ladi.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haqqul I. O'zbek adabiyotida ruboiy.
2. Haqqul I. Kasbi kamol o'zni tanishdir. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2021. – 262 b.
3. Haqqul I., Ochilov E. Ishq va olam hayrati. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
4. Haqqulov I. Qit'a va g'azal munosabatiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. – 1974. – 4-son. – B. 12–17.
5. Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 12-tom. – Toshkent: Fan, 1996.
7. Bobur Z.M. Muxtasar. – Toshkent, 1971.
8. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent, 1960.
9. Taroziy Shayx Ahmad. Funun ul-balog'a. – Toshkent: Xazina, 1996.
10. Is'hoqov Y. Navoiy ijodida ruboiy janri // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – 1968. – 9-son.
11. Is'hoqov Y. Navoiyning ilk lirikasi. – Toshkent, 1965.
12. Is'hoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983.
13. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
14. Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.
15. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
16. Rumi J. Ma'naviy Masnaviy: Kuliyot. Birinchi jild, birinchi kitob / tarj. A. Mahkam. – Toshkent: Sharq, 1999.
17. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – Toshkent, 1974.